

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**PAXTA MAYDONLARIDA TUPROQ UNUMDORLIGINI VA HOSILDORLIKNI OSHIRISH,
SUG'ORISHNING YANGI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni yanada oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalariga o'tish, o'simliklar himoyasi bo'yicha xizmatlarni yo'lga qo'yish, zamonaviy laboratoriyalar barpo etish, fermerlarni o'qitish kabi tadbirlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini joriy etish maqsadida:

1. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, O'zbekiston fermer, dehqon ho'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchi (ijarachi)lar tomonidan paxta maydonlarida tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2022-2023-yillarda sinov tariqasida rag'batlantirishning quyidagi mexanizmlarini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin:

tuproq unumdorligini oshirish va eroziyadan muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirganlik uchun soliq imtiyozlari berish;

tasdiqlangan yer tuzish hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligi yerlarini tiklash, qayta foydalanishga kiritish va yangidan o'zlashtirish, qishloq xo'jaligi yerlarini rekultivatsiyalash va melioratsiyalash tadbirlarini bajarish uchun subsidiyalar ajratish va yer solig'idan qisman ozod etish.

2. Shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq 2022-2023-yillarda sinov tariqasida:

a) tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshirish, ilmiy asoslangan almashlab ekishni va sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etish hamda o'simliklar himoyasi bo'yicha xizmatlarni yo'lga qo'yish va zamonaviy laboratoriyalarni barpo etish, shuningdek, dehqonchilik sohasidagi yangiliklar va ilg'or tajribalar bo'yicha fermerlarni o'qitish uchun yerdan foydalanuvchi (jumladan, klaster)larga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan har bir gektar maydonga bir million so'mdan subsidiya ajratiladi. Bunda:

paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha tadbirlarni bajarish uchun dastlab hisoblangan subsidiyaning 70 foizi ajratiladi;

subsidiyaning qolgan 30 foiz qismi hosildorlik oldingi mavsumga nisbatan o'rtacha 15 foizga oshirilib, Davlat statistika qo'mitasining tahliliy ma'lumotlarida o'z aksini topganda, o'tkazib beriladi;

b) paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirganlik uchun soliq imtiyozlari tuproq bonitirovkasi tahlili natijalari bo'yicha tuproq unumdorligi oshgan yerdan foydalanuvchilarga tatbiq etiladi. Bunda:

yerdan foydalanuvchilar uchun yer uchastkasi tuprog'i bonitet bali amaldagi bonitet ballga nisbatan 3 ballgacha oshgan hollarda yer solig'i stavkasi 25 foizga, 3 ball va undan oshgan hollarda 50 foizga kamaytiriladi;

yer solig'i bo'yicha imtiyozlar uch yil muddatga amal qiladi.

3. Quyidagilar:

2022-2023-yillarda paxta maydonlarida tuproq unumdorligini oshirish va ekologik holatini yaxshilash uchun subsidiya ajratish tajribasi sinovdan o'tkaziladigan tumanlar ro'yxati [1-ilovaga](#) muvofiq;

Paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalariga o'tishda amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan tadbirlar bo'yicha "Yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Qishloq xo'jaligi vazirligi ikki oy muddatda paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish bo'yicha tadbirlarni bajarish uchun subsidiya ajratish tartibini ishlab chiqib,

belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Bunda:

qishloq xo'jaligida yer munosabatlarini tartibga solish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ tomonidan tuproq unumdorligini oshirish va ekologik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni rag'batlantirish to'g'risida murojaatlarni ko'rib chiqish uchun asos bo'ladigan hujjatlar;

paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha tadbirlarni bajarish uchun subsidiya ajratiladigan yerdan foydalanuvchilar ro'yxatini shakllantirish tartibi;

Davlat budjetidan subsidiya ajratiladigan yer uchastkasi maydonini aniqlash hamda subsidiya miqdorini hisoblash va taqdim etish muddati;

paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha bajariladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni tasdiqlash tartibi nazarda tutilsin.

5. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda mazkur qarorning **1-ilovasiga** asosan subsidiya ajratiladigan tumanlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yuzasidan mas'ullar va muddatlarni aniq belgilagan holda har bir tuman uchun alohida "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlasin.

6. Qishloq xo'jaligi vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2023-yil 15-dekabr gacha qadar mazkur qarorning **1-ilovasiga** muvofiq sinov tariqasida subsidiya ajratilgan tumanlarda paxta xomashyosini yetishtirish natijalarini tahlil qilib, mazkur tajribani respublikaning boshqa tumanlarida joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

7. Hisob palatasi (B.T. Turabov) Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bilan birgalikda mazkur qaror doirasida Davlat budjeti hisobidan mablag'larning maqsadli ajratilishi va sarflanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin hamda har yarim yilda Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borsin.

8. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

9. Qishloq xo'jaligi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib qishloq xo'jaligi vaziri J.A. Xodjayev, moliya vaziri T.A. Ishmetov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari J.A. Qo'chqorov va Sh.M. G'aniyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 25-mart,
PQ-179-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 25-martdagi
PQ-179-son qaroriga
1-ILOVA

2022-2023-yillarda paxta maydonlarida tuproq unumdorligini oshirish va ekologik holatini yaxshilash uchun subsidiya ajratish tajribasi sinovdan o'tkaziladigan tumanlar

RO'YXATI

T/r	Hududlar nomi	Tumanlar nomi	Tumanlardagi asosiy ekin maydoni (gektarda)	shundan, tumanlardagi paxta maydoni (gektarda)
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Ellikqal'a	24 208	9 600

2.	Andijon	Ulug'nor	20 727	8 534
3.	Buxoro	Vobkent	20 211	10 494
4.	Jizzax	Sharof Rashidov	29 923	9 300
5.	Qashqadaryo	Qarshi	37 979	15 000
6.	Navoiy	Navbahor	23 720	7 555
7.	Namangan	Pop	36 729	10 302
8.	Samarqand	Narpay	21 115	10 762
9.	Surxondaryo	Jarqo'rg'on	19 423	6 665
10.	Sirdaryo	Sayxunobod	28 462	10 000
11.	Toshkent	Quyichirchiq	35 969	11 461
12.	Farg'ona	Beshariq	20 434	7 995
13.	Xorazm	Qo'shko'pir	23 909	9 600
Jami			342 809	127 268

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 25-martdagi
PQ-179-son qaroriga
2-ILOVA

Paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalariga o'tishda amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan tadbirlar bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
			Hokimlik va tashkilotlar	Vazirlik va idoralar
I. Tuproqning unumdorlik holati va ozuqa elementlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq holda agrotexnik tadbirlarni o'tkazish				
1.	Paxta ekiladigan maydonlarda tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha bajariladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanish uchun mavjud ma'lumotlar bazasi asosida tuproq holati to'g'risidagi xulosani tayyorlash.	Yil davomida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, paxta-to'qimachilik klasteri va yerdan foydalanuvchilar	Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), Kadastr agentligi (A. Allaberganov), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (I. Ergashev)

2.	<p>Tuproq ball boniteti, gumus, umumiy azot, fosfor, kaliy hamda nitratli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanishi darajasiga qarab g'ozani mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlarini belgilash.</p>	Yil davomida	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, paxta-to'qimachilik klasteri va yerdan foydalanuvchilar</p>	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (I. Ergashev)</p>
3.	<p>Shudgor oldidan erga fosforli o'g'itlar yillik me'yorining 70% ini (100 kg/ga sof holda, ammofos o'g'iti 220 kg/ga me'yorda), kaliyli o'g'itning 50 % ini (50 kg/ga kaliy sof holda yoki 83 kg/ga kaliy xlorid o'g'iti) hamda mahalliy o'g'it (go'ng 15 — 20 tonna yoki kompost 20 tonna/ga miqdorida) solish yuzasidan seminar o'tkazish.</p>	2022-yil oktyabr-noyabr	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, paxta-to'qimachilik klasteri va yerdan foydalanuvchilar</p>	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (I. Ergashev), Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (A. To'rayev)</p>
4.	<p>Kuzgi shudgorning ahamiyati, o'tkazish muddati, chuqurligi va mexanik tarkibi og'ir maydonlarda plug osti qatlamini 60 — 70 sm chuqur yumshatish to'g'risida seminarlar o'tkazish hamda ilmiy amaliy tavsiyalar berish.</p>	2022-yil noyabr-dekabr	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, paxta-to'qimachilik klasteri va yerdan foydalanuvchilar</p>	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (A. To'rayev)</p>
5.	<p>Tuproqning sho'rlanish darajalari, sho'r yuvish jarayoni, usullari va me'yorlari, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarning g'ozga o'simligiga ta'siri, ikkilamchi sho'rlanish, sho'rlangan yerlarda agromeliorativ tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha seminarlar o'tkazish.</p>	2022-yil noyabr-dekabr	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, paxta-to'qimachilik klasteri va yerdan foydalanuvchilar</p>	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), Suv xo'jaligi vazirligi (Sh. Xamrayev) Kadastr agentligi (A. Allaberganov)</p>